«KELISHILDI»

O‘zbekiston Badiiy akademiyasi

raisi, akademik

_____A.V. Nuridinov

2026-yil «___» _____

«KELISHILDI»

«Amaliy san’at» ijodiy birlashmasi raisi

_____A. Raximov

2026-yil «___» _____

«TASDIQLAYMAN»

“ART VERNISSAGE” auksion uyi direktori

_____Sh. Sultanov

2026-yil «___» _____

«YOSH ISTE’DODLARNI QO‘LLAB-QUVVATLASH YO‘LIDA BIRINCHI ONLAYN AUKSION» RESPUBLIKA BADIIY TANLOVINI O‘TKAZISH TO‘G‘RISIDAGI

NIZOM

Toshkent-2026

1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Ushbu Nizom «Yosh iste'dodlarni qo'llab-quvvatlash yo'lida birinchi onlayn auksion» respublika badiiy tanlovining (keyingi o'rinlarda – Tanlov) maqsadi, vazifalari, ishtirokchilar toifalari, mavzuviy yo'nalishlari, arizalarni topshirish va ko'rib chiqish tartibi, tanlov ishlariga qo'yiladigan talablar, hakamlar hay'atining ishlash, g'oliblarni aniqlash, axborot bilan yoritish hamda yakuniy onlayn auksionni o'tkazish tartibini belgilaydi.

1.2. Tanlov tashkilotchisi – Art Vernissage auksion uyi.

1.3. Tanlov hamkorlari – O'zbekiston Badiiy akademiyasi va Amaliy san'at ijodiy birlashmasi.

1.4. Tanlov maqomi – respublika miqyosida. Unda ushbu Nizom talablariga javob beradigan, O'zbekistonning barcha hududlari vakillari ishtirok etishga taklif qilinadi.

1.5. Tanlov onlayn shaklda o'tkaziladi. Arizalar va tanlov ishlarining raqamli tasvirlari Tanlov tashkilotchisining rasmiy Telegram-boti orqali qabul qilinadi.

1.6. Tanlovni o'tkazishning rasmiy muddatlari, arizalarni qabul qilishning boshlanish va tugash sanalari, hakamlar hay'ati ishining, natijalarni e'lon qilishning va onlayn auksionning sanalari hamkorlar bilan kelishilgan holda Tashkilotchi tomonidan tasdiqlanadi hamda Tanlovning rasmiy axborot resurslarida e'lon qilinadi.

1.7. Tanlovda ishtirok etish ixtiyoriy va bepul.

1.8. Tanlovning rasmiy tillari – o'zbek va rus tillari.

1.9. Ariza yuborish orqali Ishtirokchi ushbu Nizom va uning ilovalari talablariga roziligini tasdiqlaydi.

2. TANLOVNING MAQSADI VA VAZIFALARI

2.1. Tanlovning maqsadi – O'zbekistonda san'at asarlari yaratish sohasida faoliyat yuritayotgan iste'dodli yosh rassomlar, hunarmandlar va boshqa yosh mualliflarni aniqlash hamda qo'llab-quvvatlash, ularning kasbiy rivojlanishiga ko'maklashish va san'at asarlarini onlayn auksion orqali, shu jumladan xorijga rasmiy sotish uchun sharoit yaratish.

2.2. Tanlovning vazifalari:

• iste'dodli yosh mualliflarni aniqlash va ularning ijodiy salohiyatini ochishga ko'maklashish;

• tasviriy va dekorativ-amaliy san'atni aholining keng qatlamlari orasida ommalashtirish, shu jumladan O'zbekistonning yosh rassomlari va hunarmandlari ijodiy salohiyatini xalqaro maydonda tanishtirish;

• muallif, asarning Tanlov, ko‘rgazma va onlayn auksiondagi ishtiroki haqidagi ma’lumotlarni hujjatlarda qayd etish orqali yosh mualliflar asarlarining provenansini shakllantirishga ko‘maklashish;

• yosh mualliflarda san’at asarlarini rasmiy sotish madaniyatini (savdo tarixini) shakllantirish hamda asarlarni namoyishga qo‘yish, sotish va bitimlarni hujjatlashtirish tartibi haqida tushuncha hosil qilish.

3. TASHKILOTCHI VA HAMKORLAR

3.1. Tashkilotchi Tanlovga umumiy rahbarlik qiladi, hamkorlar bilan birgalikda tashkiliy qo‘mita va hakamlar hay’ati tarkibini shakllantiradi, arizalarni qabul qilish va ro‘yxatga olish, tanlov materiallarini moderatsiyadan o‘tkazish, axborot bilan yoritish, yakunlarni chiqarish, natijalarni e’lon qilish va onlayn auksionni tashkil etishni ta’minlaydi.

3.2. Tanlov hamkorlari:

• O‘zbekiston Badiiy akademiyasi;

• Amaliy san’at ijodiy birlashmasi.

3.3. Hamkorlar hamkorlik to‘g‘risidagi kelishuvda belgilangan vakolatlar doirasida Tanlovni axborot, ekspertlik, tashkiliy va boshqa jihatdan qo‘llab-quvvatlashda ishtirok etishlari mumkin.

3.4. Tashkilotchi Tanlov maqsadlariga rioya etish sharti bilan axborot hamkorlari, ta’lim muassasalari, galereyalar, ekspert tashkilotlari, homiylar va boshqa shaxslarni jalb qilishga haqli.

4. ISHTIROKCHILAR VA TANLOV TOIFALARI

4.1. Tanlovda ishtirokchilarning uch toifasi qatnashadi:

• «Maktab o‘quvchilari» – ixtisoslashtirilgan san’at maktablarining 10–11-sinf o‘quvchilari;

• «Talabalar» – oliy va sohaga ixtisoslashtirilgan ta’lim tashkilotlarining 1–4-kurs talabalari;

• «Yosh iste’dodlar» – sohaga oid badiiy ma’lumotga ega bo‘lishidan qat’i nazar, badiiy yoki dekorativ-amaliy ijod bilan shug‘ullanuvchi 18 yoshdan 24 yoshgacha bo‘lgan shaxslar (24 yosh ham kiradi).

4.2. Ishtirokchi ariza topshirilgan sanadagi haqiqiy maqomiga mos keladigan faqat bitta toifa bo‘yicha ariza beradi.

4.3. Voyaga yetmagan ishtirokchining arizasi uning ota-onasi yoki boshqa qonuniy vakili roziligi bilan topshiriladi. Rozilik 2-ilovada nazarda tutilgan shaklda rasmiylashtiriladi.

4.4. Manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelgan hollarda hakamlar hay’ati a’zolari, arizalarni bevosita baholovchi xodimlar, shuningdek, Tanlov natijalariga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan shaxslarning ishtirok etishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

5. MAVZUVIY YO‘NALISHLAR

5.1. Tanlov quyidagi mavzuviy yo‘nalishlar bo‘yicha o‘tkaziladi:

«O‘zbekiston lazzatlari»
«Sana’t va zamon»
«Rang va yorug‘lik orasida»
«Ozbekiston madaniy me’rosi»

5.2. Ishtirokchi o‘z tanlov ishi uchun bitta mavzuviy yo‘nalishni mustaqil tanlaydi.

5.3. Tashkilotchi tanlangan mavzuga mos kelmaydigan ishlarni sabablarini qo‘shimcha tushuntirmasdan Tanlovda ishtirok etishdan chetlatishga haqli.

6. TANLOV ISHLARIGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

6.1. Tanlovda Ishtirokchi tomonidan shaxsan yaratilgan hamda Tanlovning mavzuli yo‘nalishlariga mos keladigan tasviriy va amaliy san’ati asarlari qabul qilinadi.

6.2. Tanlovda quyidagi san’at turlariga mansub asarlar ishtirok etishiga ruxsat etiladi:

• tasviriy san’at — rangtasvir, grafika, qalamtasvir, haykaltaroshlik, aralash texnika hamda tasviriy san’atning boshqa shakllari;

• amaliy san’ati — kulolchilik, badiiy to‘qimachilik, kashtachilik, o‘ymakorlik, yog‘och va metallga badiiy ishlov berish, zargarlik san’ati hamda amaliy san’atining boshqa turlari.

Tanlov ishini yaratishda sun’iy intellekt, kompyuter dasturlari va boshqa texnik vositalardan foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi. Asar fotosuratiga raqamli ishlov berishga faqat mazkur Nizomning 4-sonli ilovasida belgilangan doirada ruxsat etiladi.

6.3. Har bir Ishtirokchidan Tanlovga 1 (bitta) ish qabul qilinadi.

6.4. Ish kompozitsiya, rang, tafsilotlar, faktura va asarning umumiy holatini baholash imkonini beradigan sifatli raqamli fotosurat shaklida taqdim etilishi kerak.

6.5. Fayllarning asosiy formatlari – PNG va PDF. Fotosuratlar uchun Tashkilotchi qo‘shimcha ravishda JPEG/JPG formatlarini ham qabul qiladi. Batafsil texnik talablar 4-ilovada keltirilgan.

6.6. Sifatli raqamlashtirishda qiyinchiliklar yuzaga kelsa, Ishtirokchi oldindan kelishilgan holda asarning asl nusxasini Tanlov tashkilotchisi – Art Vernissage auksion uyi ofisiga taqdim etishi mumkin. Asl nusxani qabul qilish va qaytarish shartlari dalolatnomada qayd etiladi.

6.7. O‘zbekiston Respublikasining mualliflik huquqi to‘g‘risidagi qonunchiligini buzadigan, plagiat bo‘lgan yoki boshqalarning asarlaridan ko‘chirilgan ishlar qabul qilinmaydi. Ishlarda kamsituvchi, dinga qarshi, ekstremistik, pornografik yoki qonunchilik bilan taqiqlangan boshqa materiallarni tasvirlash taqiqlanadi.

6.8. Ishtirokchi o‘z muallifligini kafolatlaydi hamda asar haqidagi ma’lumotlarning to‘g‘riligi va mualliflik huquqi buzilmaganligi uchun to‘liq javobgar bo‘ladi. Mualliflik huquqi buzilgani aniqlansa, ish Tanlovdan chiqariladi.

6.9. Tanlov ishining old tomonida muallif imzosi, ishtirokchining familiyasi, ismi, otasining ismi yoki muallifni aniqlash imkonini beradigan har qanday yozuv va boshqa belgilar bo‘lishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Bunday ma’lumotlar aniqlansa, ish tanlov komissiyasi tomonidan ko‘rib chiqilmaydi va Tanlovdan chiqariladi.

Asarga muallif imzosini qo‘yishga faqat ish Tanlov g‘olibi deb topilgan va keyinchalik ko‘rgazmada namoyish etilib, onlayn auksionga qo‘yiladigan holatda ruxsat beriladi.

7. ARIZALARNI TOPSHIRISH TARTIBI

7.1. Ariza Tashkilotchi e’lon qilgan muddatlarda Tanlovning rasmiy Telegram-boti orqali elektron shaklda yuboriladi.

7.2. Ishtirok etish uchun quyidagilar taqdim etilishi kerak:

- 1-ilovadagi shakl bo‘yicha to‘ldirilgan ariza;
- tanlov ishining raqamli tasviri;
- ishning nomi, yaratilgan yili, texnikasi, materiali, o‘lchamlari va qisqacha tavsifi;
- muallif haqidagi qisqacha tarjimai hol ma’lumotlari (familiyasi, ismi, otasining ismi, tug‘ilgan yili, ta’lim muassasasi nomi, hudud, tuman, shahar);
- ishtirok toifasini tasdiqlovchi ma’lumot;
- shaxsga doir ma’lumotlarga ishlov berishga rozilik, voyaga yetmagan shaxs uchun esa 2-ilovaga muvofiq qonuniy vakilning roziligi;
- 3-ilovaga muvofiq Tanlov tashkilotchisining axborot va reklama materiallarida tanlov ishi tasviridan foydalanishga rozilik.

7.3. Belgilangan muddatdan keyin kelib tushgan yoki zaruriy materiallari to‘liq bo‘lmagan arizalar ko‘rib chiqilmaydi.

7.4. Taqdim etilgan tasvir ishni sifatli baholash uchun yetarli bo‘lmasa, Tashkilotchi qo‘shimcha ma’lumotlar yoki faylni qayta yuklashni so‘rashga haqli.

8. ISHLARNI RO‘YXATGA OLISH VA TANLOVGA QO‘YISH

8.1. Ariza kelib tushgach, Tashkilotchi taqdim etilgan materiallarni tahlil qiladi.

8.2. Moderatsiya natijalariga ko‘ra ariza qabul qilinishi, qayta ishlash uchun qaytarilishi yoki sababi ko‘rsatilgan holda rad etilishi mumkin.

8.3. Ishning ishtirokchi toifasiga mos kelmasligi, topshirish muddatlarining buzilishi, zaruriy materiallarning yo‘qligi, raqamli tasvir sifatining qoniqarsizligi, mavzuga mos kelmasligi, mualliflik huquqi yoki qonunchilik buzilishi alomatlarining aniqlanishi Tanlovda ishtirok etishni rad etish uchun asos bo‘ladi.

8.4. Arizaning ro‘yxatga olinishi Ishtirokchining avtomatik ravishda g‘olib deb topilishini yoki asarning onlayn auksionga qo‘yilishini anglatmaydi.

9. TANLOVNI O‘TKAZISH BOSQICHLARI VA MUDDATI

9.1. I bosqich – Tanlovni e’lon qilish va OAV orqali targibot ishlari – 2026 yil 20 oktayrdan;

9.2. II bosqich – Telegram-bot orqali arizalarni qabul qilish va ro‘yxatga olish – 2026 yil 1 noaybrdan – 20 noaybrgacha;

9.3. III bosqich – moderatsiya va ishlarni tanlashga tayyorlash - 2026 yil 20-22 noaybrgacha;

9.4. IV bosqich–hakamlar hay’ati a’zolari tomonidan ishlarni ekspert baholash – 2026 yil 5 dekabrgacha;

9.5. V bosqich – har bir toifadan 10 nafardan, jami 30 nafar g‘oliblarni aniqlash va taqdirlash – 2026 yil 8 dekabr;

9.6. VI bosqich – 30 nafar g‘olibning tarjimai holi va ijodiy yo‘li haqidagi ma’lumotlarni Art Vernissage platformasida (www.artvernissage.art) joylashtirish – 2026 yil 10 dekabr;

9.7. VII bosqich – g‘oliblarning 30 ta asari asl nusxalarini Art Vernissage ofisiga topshirish, Tashkilotchi tomonidan ularni ko‘rgazma va auksion uchun rasmiylashtirish (shartnomalar tuzish) va Art Vernissage galereyasida ko‘rgazma o‘tkazish; asarlarni foto va videoga olish, auksion katalogini tayyorlash, xalqaro onlayn auksion o‘tkazish uchun platformaga ishlarni yuklash - 2026 yil 15 dekabrgacha;

9.8. VIII bosqich – xalqaro onlayn auksionni o‘tkazish, uning natijalarini e’lon qilish, shartnoma bo’icha ijodkorlar bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish va sotilgan asarlarni auksion goliblariga topshirish va OAV keng yoritish – 2026 yil 25 dekabrgacha.

9.9. Mazkur bobda belgilangan muddatlar o‘zgarsa, Tanlov tashkiliy qo‘mitasi tomonidan yangi muddatlar alohida e’lon qilinadi.

10. TANLOV HAKAMLAR HAY'ATI

10.1. Hakamlar hay'ati tarkibi Tashkilotchi tomonidan tasdiqlanadi va unga professional rassomlar, san'atshunoslar, kuratorlar hamda Tanlov hamkorlarining vakillari kiritilishi mumkin.

10.2. Hakamlar hay'ati a'zolari sonini toq son etib, kamida 11 kishidan iborat tarkibda belgilash tavsiya etiladi.

10.3. Hakamlar hay'ati a'zolari ishlarni ushbu Nizom mezonlariga asoslanib mustaqil baholaydilar hamda natijalarni 5-ilovaga muvofiq badiiy baholash bayonnomasida qayd etadilar.

10.4. Agar hakamlar hay'ati a'zosi Ishtirokchi bilan shaxsan tanish bo'lsa, uning qarindoshi yoki o'qituvchisi bo'lsa yoxud uning g'alabasidan boshqa tarzda manfaatdor bo'lsa, bu haqda xabar berishi va mazkur Ishtirokchining ishini baholamasligi shart.

10.5. Hakamlar hay'ati qarorlari bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi. Hakamlar hay'ati a'zolarining individual baholari e'lon qilinmasligi mumkin.

11. BAHOLASH MEZONLARI

11.1. Tanlovga qo'yilgan har bir ish quyidagi mezonlar bo'yicha 10 ballik tizimda baholanadi:

Mezon	**Baholash mazmuni**	**Ballar**
Mavzuga muvofiqlik	Asarning tanlangan mavzuviy yo'nalish bilan bog'liqligi	1–10
Badiiy saviya	Kompozitsiya, shakl, rang, material va texnika bilan ishlash	1–10
Originallik	Badiiy g'oyaning mustaqilligi va muallifning o'ziga xosligi	1–10
Ijro mahorati	Badiiy yechimning sifati va tugallanganligi	1–10
Konseptuallik	G'oyaning ifodaliligi va mazmuniy teranligi	1–10
Hissiy ta'sir	Asarning yaxlit taassurot va hissiy aks sado uyg'otish qobiliyati	1–10

11.2. Bitta ishning eng yuqori yakuniy bahosi – 60 ball. Yakuniy natija baholashda ishtirok etgan hakamlar hay'ati a'zolari baholarining yig'indisi yoki o'rtacha qiymati asosida aniqlanadi.

11.3. Yakuniy ballar teng bo‘lsa, originallik bo‘yicha, keyin esa badiiy saviya bo‘yicha yuqori baho olgan ishga ustunlik beriladi. Tenglik saqlanib qolsa, qaror hakamlar hay’atining ochiq ovoz berishi orqali qabul qilinadi.

12. G‘OLIBLARNI ANIQLASH

12.1. Tanlov yakunlariga ko‘ra 30 nafar g‘olib aniqlanadi:

- «Maktab o‘quvchilari» toifasida 10 nafar g‘olib;
- «Talabalar» toifasida 10 nafar g‘olib;
- «Yosh iste’dodlar» toifasida 10 nafar g‘olib.

12.2. Har bir toifa ichida g‘oliblarning mavzuviy yo‘nalishlar bo‘yicha taqsimoti hakamlar hay’atining yakuniy baholari va kelib tushgan ishlarning sifatiga ko‘ra belgilanadi.

12.3. Natijalar bayonnoma bilan tasdiqlanadi va Art Vernissage rasmiy axborot resurslarida e’lon qilinadi.

12.4. Tashkilotchi belgilangan g‘oliblar sonini kamaytirmasdan maxsus diplomlar va qo‘shimcha nominatsiyalar ta’sis etishga haqli.

13. TAQDIRLASH VA G‘OLIBLAR UCHUN IMKONIYATLAR

13.1. Har bir g‘olibga Art Vernissage platformasida tarjimai holi, ijodiy yo‘li tarixi va tanlov ishi haqidagi ma’lumotlarni e’lon qilish imkoniyati beriladi.

13.2. Qo‘shimcha tekshiruvdan o‘tgan va sotish shartlari kelishilgan g‘oliblar asarlari yosh iste’dodlarni qo‘llab-quvvatlash yo‘lida birinchi onlayn auksion doirasida platformaga joylashtiriladi.

13.3. Asar Art Vernissage platformasi orqali muvaffaqiyatli sotilsa, g‘olibga auksion uyi bilan tuziladigan alohida shartnoma shartlari asosida 1 yil davomida platformaga yana 5 (beshta) asargacha bepul joylashtirish imkoniyati beriladi.

13.4. G‘oliblikning o‘zi asarning sotilishini kafolatlamaydi. Auksionga qo‘yish shartlari, boshlang‘ich narx, komissiya, hisob-kitoblar, asarni xaridorga topshirish va sotishning boshqa shartlari platforma qoidalari hamda Tashkilotchi bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq alohida rasmiylashtiriladi.

13.5. G‘oliblarga diplomlar/sertifikatlar topshiriladi.

13.6. Arizasi ro‘yxatga olingan va Tanlovga qo‘yilgan har bir Ishtirokchiga Tanlovda qatnashganligi haqidagi shaxsiy sertifikat elektron shaklda yuboriladi.

13.7. G‘oliblar e’lon qilingach, Tashkilotchining «Art Gallery» galereyasida Tanlov g‘oliblari asarlari ko‘rgazmasi o‘tkaziladi. Asarlar ko‘rgazma ochilgan kundan boshlab onlayn

auksion yakunlanib, uning natijalari rasman e'lon qilinguniga qadar potensial xaridorlar va tashrif buyuruvchilar tanishishi uchun namoyish etiladi.

13.8. G'oliblar asarlarini ko'rgazma uchun rasmiylashtirish Tashkilotchining o'z mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi. Rasmiylashtirish turi va usuli asarning texnikasi, o'lchamlari, saqlanish holati va ekspozitsiya talablarini hisobga olgan holda Tashkilotchi tomonidan belgilanadi.

13.9. G'olib Tashkilotchi belgilagan muddatda tanlov ishining asl nusxasini Art Vernissage ofisiga yetkazishi shart. Asarni topshirish va qaytarish qabul qilish-topshirish dalolatnomasi bilan rasmiylashtiriladi. Ishni Tashkilotchi ofisiga yetkazish xarajatlari va barcha xatarlarini Ishtirokchi o'z zimmasiga oladi. Tanlov g'olibi ishining asl nusxasi belgilangan muddatda taqdim etilmasa, ish Tanlovdan va onlayn auksiondagi ishtirokdan chiqariladi.

14. ONLAYN AUKSIONNI O'TKAZISH TARTIBI

14.1. Onlayn auksion Art Vernissage auksion uyining elektron platformasida belgilangan qoidalar va auksion savdolarini o'tkazish tartibiga muvofiq o'tkaziladi.

14.2. Tanlov g'oliblarining asarlari onlayn auksionga qo'yiladi.

14.3. Asarning ko'rgazma va onlayn auksiondagi ishtiroki muallif (yoki uning ishonchli vakili) bilan Art Vernissage auksion uyi o'rtasidagi shartnoma bilan rasmiylashtiriladi.

14.4. Asar sotilguniga qadar unga bo'lgan mulk huquqi muallif yoki uning qonuniy vakilida saqlanadi, sotilgach esa mulk huquqi asar xaridoriga o'tadi.

14.5. Onlayn auksionda ishtirok etishning moliyaviy shartlari shartnoma bilan tartibga solinadi.

14.6. Onlayn auksionda O'zbekiston va boshqa mamlakatlar xaridorlari ishtirok etishi mumkin. Narx takliflarini qabul qilish, xaridorni identifikatsiya qilish, to'lov, so'mda yoki chet el valyutasida hisob-kitoblar, yetkazib berish va asarni Respublika hududidan olib chiqish O'zbekiston Respublikasi qonunchiligini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

14.7. Onlayn-auksion doirasida savdoga qo'yiladigan har bir lotning boshlang'ich qiymati 1 000 000 (bir million) so'mgacha miqdorda belgilanadi.

14.8. Onlayn-auksion davomida lotning qiymati kelib tushgan takliflar (stavkalar) asosida oshib boradi. Muayyan lot bo'yicha savdolar yakunlangan vaqtda eng yuqori narxni taklif qilgan auksion ishtirokchisi savdo g'olibi deb e'tirof etiladi.

14.9. Asari onlayn-auksion doirasida sotilgan Tanlov g'olibiga ushbu asarning yosh iste'dodlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan birinchi onlayn-auksionda sotilganligini tasdiqlovchi sertifikat, shuningdek, auksionning bosma katalogi nusxasi taqdim etiladi.

14.10. Onlayn-auksion doirasida sotilgan har bir asarning xaridoriga xarid qilingan asarning haqiqiyligini tasdiqlovchi sertifikat taqdim etiladi.

15. MUALLIFLIK HUQUQLARI VA MATERIALLARDAN FOYDALANISH

15.1. Tanlov ishiga bo'lgan mutlaq mualliflik huquqlari muallifda saqlanadi.

15.2. Ariza yuborish orqali Ishtirokchi Tashkilotchiga tanlov ishi tasviri, muallif ismi, tarjimai hol ma'lumotlari va ish tavsifidan faqat Tanlov doirasida targ'ib qilish va reklama maqsadlarida, shu jumladan sayt, platforma, ijtimoiy tarmoqlar, OAV, kataloglar va matbuot materiallarida muallif ismini ko'rsatgan holda foydalanishga bepul ruxsat beradi.

15.3. Asar tasviridan axborot maqsadlarida foydalanish huquqining Tashkilotchiga berilishi asarga bo'lgan mutlaq mualliflik huquqlari va mulk huquqining boshqa shaxsga o'tkazilishini anglatmaydi.

16. SHAXSGA DOIR MA'LUMOTLAR

16.1. Shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berishga rozilik 2-ilovadagi shakl bo'yicha rasmiylashtiriladi. Voyaga yetmagan shaxslar uchun tegishli rozilikni qonuniy vakil beradi.

16.2. Faqat Tanlovni axborot bilan yoritish uchun zarur bo'lgan va Ishtirokchi bilan kelishilgan ma'lumotlar ommaga e'lon qilinadi: ismi/ijodiy taxallusi, qisqacha tarjimai holi, hududi, asar haqidagi ma'lumotlar va uning tasviri.

17. AXBOROT BILAN YORITISH

17.1. Tanlov, uning muddatlari, bosqichlari, natijalari va onlayn auksion haqidagi rasmiy ma'lumotlar Art Vernissage auksion uyining axborot resurslarida e'lon qilinadi.

17.2. Auksion uyining sayti:

www.artvernissage.art

Asosiy ijtimoiy tarmoqlar:

- Telegram: @ART_VERNISSAGE_UZ;
- Instagram: @art_vernissage.uz.
- YouTube: @artvernissage_uzb

17.3. Tashkilotchi Tanlovning borishi haqida press-relizlar, intervyular, foto va videomateriallarni OAV hamda hamkorlar resurslarida joylashtirishga haqli.

18. MOLIYALASHTIRISH

18.1. Tanlovni tashkil etish xarajatlari Tashkilotchi mablag'lari, hamkorlar va homiylar ko'magi hisobidan qoplanadi.

18.2. Asarlar yaratish, materiallar tayyorlash va ishlarni Art Vernissage ofisiga yetkazish bilan bog‘liq xarajatlarni Ishtirokchilar mustaqil qoplaydilar. G‘oliblar asarlarini ko‘rgazma uchun rasmiylashtirish xarajatlarini Tashkilotchi qoplaydi.

19. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

19.1. Ishtirokchi taqdim etilgan ma’lumotlarning haqqoniyligi, asar muallifi ekanligi, mualliflik huquqlariga hamda mazkur Nizom talablariga rioya etilishi uchun javobgar bo‘ladi.

19.2. Asarning asl nusxasi onlayn auksionga tayyorlash uchun qabul qilinganda, tomonlarning javobgarligi Tashkilotchi bilan tuziladigan shartnomada belgilanadi.

20. YENGIB BO‘LMAYDIGAN KUCH HOLATLARI (FORS-MAJOR)

20.1. Agar ushbu Nizomda nazarda tutilgan majburiyatlarning to‘liq yoki qisman bajarilmasligi Tanlov boshlanganidan keyin yuzaga kelgan va tegishli tomon nazoratidan tashqarida bo‘lgan yengib bo‘lmaydigan kuch (fors-major) holatlari oqibatida sodir bo‘lsa, Tashkilotchi va Hamkorlar javobgarlikdan ozod etiladi.

20.2. Yengib bo‘lmaydigan kuch holatlariga, jumladan, tabiiy ofatlar, yong‘inlar, suv toshqinlari, zilzilalar, epidemiyalar va boshqa favqulodda vaziyatlar; harbiy harakatlar; ommaviy tartibsizliklar; Tanlovni o‘tkazishga to‘sqinlik qiluvchi davlat organlarining qarorlari va cheklovlari; elektr ta’minoti, aloqa va axborot-telekommunikatsiya tarmoqlari faoliyatidagi yirik avariyalar va uzilishlar, shuningdek mazkur sharoitda favqulodda va oldini olib bo‘lmaydigan boshqa holatlar kirishi mumkin.

20.3. Yengib bo‘lmaydigan kuch holatlari yuzaga kelganda Tashkilotchi Tanlovning ayrim bosqichlari muddatlarini o‘zgartirish, Tanlovni vaqtincha to‘xtatib turish, ko‘rgazma va/yoki onlayn auksion sanasini ko‘chirish, ayrim tadbirlarni o‘tkazish tartibini o‘zgartirish yoki boshqa zarur tashkiliy choralarni ko‘rishga haqli.

20.4. Yengib bo‘lmaydigan kuch holatlari Tanlovni yoki uning ayrim bosqichlarini davom ettirishni obyektiv ravishda imkonsiz qilsa, Tashkilotchi tegishli ma’lumotni majburiy e’lon qilgan holda muddatlarni ko‘chirish, tegishli bosqichni yoki Tanlovni umuman tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilishga haqli.

21. MUROJAATLAR VA NIZOLARNI KO‘RIB CHIQISH TARTIBI

21.1. Ishtirokchilarning murojaatlari yozma shaklda, elektron pochta yoki Tashkilotchi ko‘rsatgan rasmiy kanallar orqali qabul qilinadi.

21.2. Ro‘yxatga olish, ma’lumotlarni tuzatish va Tanlovda ishtirok etish tartib-taomillariga rioya qilish masalalari yuzasidan murojaatlarni Tashkilotchi ko‘rib chiqadi. Hakamlar hay’atining badiiy bahosi ekspert xulosasi xususiyatiga ega bo‘lib, faqat natijaga

ta'sir ko'rsatgan tartib-taomil xatosi, manfaatlar to'qnashuvi yoki noto'g'ri ma'lumotlar aniqlanganda qayta ko'rib chiqiladi.

22. YAKUNIY QOIDALAR

22.1. Ushbu Nizom tasdiqlangan sanadan kuchga kiradi.

22.2. Tashkilotchi arizalarni qabul qilish tugaguniga qadar Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishga haqli. Arizalarni qabul qilish tugagach esa, o'zgartirishlar faqat ro'yxatga olingan Ishtirokchilarning holatini yomonlashtirmasa yoki yengib bo'lmaydigan kuch holatlari, qonunchilik talablari yoxud texnik zarurat bilan bog'liq bo'lsa, kiritilishi mumkin.

22.3. Barcha o'zgartirishlar Tashkilotchining rasmiy axborot resurslarida e'lon qilinadi.

22.4. Ushbu Nizom bilan tartibga solinmagan masalalar Tanlov maqsadlari va O'zbekiston Respublikasining tatbiq etiladigan qonunchiligini hisobga olgan holda Tashkilotchi tomonidan hal etiladi.

23. ALOQA MA'LUMOTLARI

23.1. Tashkilotchi: «Art Vernissage» MChJ auksion uyi.

23.2. Ofis manzili: Yakkasaroy tumani, Muqimiy 1-tor ko'chasi, 8A-uy.

23.3. Telefon: +998 (55) 514-12-12; +998 (55) 515-17-07

E-mail: info@art-v.uz.

23.4. Telegram: @ART_VERNISSAGE_UZ.

Instagram: @art_vernissage.uz.

23.5. Tanlov Telegram-botiga havola: _____.

«Yosh iste'dodlarni qo'llab-quvvatlash yo'lida birinchi onlayn auksion» respublika badiiy tanlovini o'tkazish to'g'risidagi Nizomga 1-ilova

ISHTIROK ETISH UCHUN ARIZA SHAKLI

Ishtirokchi/qonuniy vakilning ID-kartasi	
Ishtirokchining familiyasi, ismi, otasining ismi	
Tug'ilgan sana	
Toifa	□ Maktab o'quvchilari (10–11-sinflar) □ Talabalar (1–4-kurslar) □ Yosh iste'dodlar (18–24 yosh)
Hudud / shahar	
Ta'lim muassasasi, sinf/kurs (tegishli bo'lsa)	
Telefon	
E-mail	
Telegram foydalanuvchi nomi	
Mavzuviy yo'nalish	
Yaratilgan yil	
Texnika / material	
O'lchamlari	
Ishning qisqacha tavsifi (700 belgigacha)	
Muallifning qisqacha tarjimai holi (1000 belgigacha)	

Nizom bilan tanishganimni, taqdim etilgan ma'lumotlar to'g'riligini va tanlov ishini shaxsan o'zim yaratganimni tasdiqlayman.

Sana: 2026-yil «___» _____ Imzo: _____

«Yosh iste'dodlarni qo'llab-quvvatlash yo'lida birinchi onlayn auksion» respublika badiiy tanlovini o'tkazish to'g'risidagi Nizomga 2-ilova

SHAXSGA DOIR MA'LUMOTLARGA ISHLOV BERISHGA ROZILIK

Men, _____, ushbu hujjat bilan Tanlov tashkilotchisi sifatida Art Vernissage auksion uyiga arizamda taqdim etgan shaxsga doir ma'lumotlarimga Tanlovni tashkil etish va o'tkazish, men bilan bog'lanish, arizani tekshirish, yakunlarni chiqarish hamda g'oliblar haqida ma'lumot e'lon qilish uchun zarur hajmda ishlov berishga ixtiyoriy rozilik beraman.

Rozilik Tanlov maqsadlari doirasida shaxsga doir ma'lumotlar bilan zarur harakatlarni amalga oshirishni qamrab oladi va, agar tatbiq etiladigan qonunchilik yoki alohida rozilikda boshqa muddat belgilanmagan bo'lsa, Tanlovni o'tkazish hamda uning tashkiliy arxivini saqlash davri davomida amal qiladi.

18 yoshga to'lmagan ishtirokchi uchun:

Qonuniy vakilning familiyasi, ismi, otasining ismi: _____
Ota-ona yoki rasmiy vakilning hujjati: _____
Aloqa telefoni: _____

Sana: 2026-yil «___» _____

Ishtirokchi/qonuniy vakilning imzosi: _____

«Yosh iste'dodlarni qo'llab-quvvatlash yo'lida birinchi onlayn auksion» respublika badiiy tanlovini o'tkazish to'g'risidagi Nizomga 3-ilova

TANLOV ISHI TASVIRIDAN FOYDALANISHGA ROZILIK

Men, _____,

«_____» nomli tanlov asarining muallifi/qonuniy huquq egasi sifatida, Tanlov Tashkilotchisiga mazkur asar tasviridan Tanlovni tashkil etish, yoritish, targ'ib qilish va reklama qilish maqsadlarida bepul foydalanishga ruxsat beraman.

Mazkur rozilik asarning asl nusxasiga bo'lgan mulk huquqini boshqa shaxsga o'tkazmaydi hamda mutlaq mualliflik huquqlarining boshqa shaxsga o'tkazilishini anglatmaydi. Asarni onlayn auksion orqali tijorat maqsadida sotish alohida shartnoma bilan rasmiylashtiriladi.

Sana: 2026-yil «___» _____ Imzo: _____

«Yosh iste'dodlarni qo'llab-quvvatlash yo'lida birinchi onlayn auksion» respublika badiiy tanlovini o'tkazish to'g'risidagi Nizomga 4-ilova

TANLOV ISHLARIGA QO'YILADIGAN TEXNIK TALABLAR

- Raqamli fayl formatlari: PNG yoki PDF; asarni suratga olish uchun qo'shimcha ravishda JPEG/JPG formatlariga ham ruxsat beriladi.
- Tasvir aniq bo'lishi, kuchli yorug'lik akslari, rang filtrlari, suv belgilari va kadrdagi begona buyumlarsiz taqdim etilishi kerak.
- Asar old tomondan to'g'ri qarab suratga olinadi; uning chetlari to'liq ko'rinishi kerak. Hajmli va dekorativ-amaliy san'at asarlari uchun turli rakurslardan olingan 2–4 ta qo'shimcha suratni ilova qilish tavsiya etiladi.
- Tavsiya etiladigan tasvir aniqligi: uzun tomoni bo'yicha kamida 2000 piksel; fayl tafsilotlar va fakturani ko'rish imkonini berishi kerak.
- PDF faylining birinchi sahifasida asarning umumiy ko'rinishini, keyingi sahifalarida esa zaruratga ko'ra yiriklashtirilgan tafsilotlarni joylashtirish tavsiya etiladi.
- Fayl nomini quyidagi shaklda yozish tavsiya etiladi: Ish_Mavzusi_.
- Raqamli qayta ishlashga faqat yorqinlik, kontrast, oq rang balansi va kadr chegaralarini to'g'ri yetkazish uchun ruxsat beriladi; asarning mazmuni va ranglar gammasini o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi.
- Tashkilotchi so'roviga ko'ra Ishtirokchi ishni ko'rib chiqish uchun qayta olingan fotosuratlarni, qo'shimcha tafsilotlarni yoki asl nusxani taqdim etadi.

«Yosh iste'dodlarni qo'llab-quvvatlash yo'lida birinchi onlayn auksion» respublika badiiy tanlovini o'tkazish to'g'risidagi Nizomga 5-ilova

Hakamlar hay'ati a'zosining badiiy baholash BAYONNOMASI

Hakamlar hay'ati a'zosining F.I.O.: _____

Ishtirokchi toifasi: _____ Ish kodi/raqami: _____

Mezon	Eng yuqori ball	Baho	Izoh (majburiy)
Mavzuga muvofiqlik	10		
Badiiy saviya	10		
Originallik	10		
Ijro mahorati	10		
Konseptuallik	10		
Hissiy ta'sir	10		
JAMI	60		

Manfaatlar to'qnashuvi: □ yo'q □ mavjud (ish baholanmaydi)

Sana: 2026-yil «___» _____ Imzo: _____